



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 29-iyul

375-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024 yil 29 apreldagi 242-son qarori ijrosi haqida” 342-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida.

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024 yil 29 apreldagi 242-son qarori ijrosi haqida” 342-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga muvofiq,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 26 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quvchilarini pedagog kasbiga maqsadli tayyorlash va bitiruvchilarning bandligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024 yil 29 apreldagi 242-son qarori ijrosi haqida” 342-6-0-Q/24-sonli qarori asos va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 29 apreldagi 242-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-2025-o‘quv yilidan boshlab Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri hamda har bir viloyatda bittadan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida (keyingi o‘rinlarda - maktablar) 10-11-sinf o‘quvchilarini pedagog kasbiga tizimli tayyorlash uchun pedagogik sinflarni tajriba-sinov tariqasida tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

Belgilanishicha:

pedagogik sinflarni tajriba-sinov tariqasida tashkil etish va ularning faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish jarayonlari maktablarda tegishli hududdagi pedagogika oli yta’lim muassasasining ishtirokida amalga oshirilishi; ilg‘or xorijiy tajribalar asosida pedagogik sinflar uchun alohida o‘quv dasturi ishlab chiqilishi;

pedagogik sinflarni tamomlagan bitiruvchilarga Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomga muvofiq shahodatnoma hamda O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasining 2-darajasidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachi yordamchisi kasbi bo'yicha ishlash huquqini beruvchi davlat namunasidagi sertifikat berilishi;

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti pedagogik sinflari tashkil etilgan maktablar va birlashtirilgan pedagogika oliy ta'lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirilishi va ularga metodik yordam ko'rsatilishi;

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida pedagogik sinflarni tashkil etish va bitiruvchilari bandligini ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi (E.Ermirzayev) maktablarda tajriba-sinov tariqasida tashkil etiladigan pedagogik sinflar faoliyatini samarali tashkil etilishga shaxsan mas'ul ekanligi ko'rsatib o'tilsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



B.Muydinov